

2017-2024-yillarda tadbirkorlikning yangi bosqichi

Qodirov Abduraxmon Tursunovich

Turon univerteti Andijon filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida oilaviy tadbirkorlikni kreativ rivojlantirishning istiqbollari. Tadqiqot oilaviy tadbirkorlikning hozirgi rivojlanish bosqichini baholash bilan birga, kreativ iqtisodiyot elementlari - innovatsion mahsulotlar yaratish, kreativ xizmatlar ko'rsatish, raqamli platformalardan foydalanish, dizayn, brending va kooperatsion tarmoqlarni rivojlantirish - orqali ushbu sektorning yangi imkoniyatlarini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, kreativ iqtisodiyot, iqtisodiy modernizatsiya, innovatsiya, kreativ xizmatlar, kreativ klasterlar, raqamli platformalar, kreativ mehnat bozori, hududiy rivojlanish.

O'zbekistonda 2017-2024 yillar davrida olib borilgan islohotlar makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror o'sishni ta'minlash, savdoni erkinlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish, tadbirkorlik faolligini kuchaytirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan edi.

Tahlilni iqtisodiyotning demografik asoslaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Aholi soni yetti yil ichida 32 mlndan 37,5 mln kishiga ko'paydi, ya'ni o'sish 12,7 foizga teng bo'ldi. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 2 foiz yoki har yili +690 ming kishini tashkil etdi. Aholi sonining o'sishi iqtisodiyot uchun ham xatarlar, ham yangi imkoniyatlar yaratadi, shu jumladan, ish o'rinlari va ijtimoiy infratuzilmaga bo'lgan talabni rag'batlantiradi.

Aholi soni o'sishi fonida turmush darajasining barqaror oshishi kuzatilmoqda. Aholi jon boshiga YaIM 2018 yildagi 1781 dollardan 2024 yilda 3093 dollarga o'sdi va o'rtacha yillik o'sish 24,7 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy bazaning kengayishi bilan bir vaqtda mehnat bozoridagi vaziyat yaxshilandi. 2020 yilda ishsizlik darajasi 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib, u 5,5 foizga tushdi. Bu unumdorlikning oshishi, investitsiyalar jalb etilishi va ichki iste'molning kengayishi natijasi bo'ldi.

Bularning barchasi aholi daromadlariga ta'sir qildi. Ko'rib chiqilayotgan davrda fuqarolarning real yalpi daromadlari 83 foizga oshdi. Daromadlarning o'sishi ham bandlikni kengaytirish, ham ish haqini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish orqali ta'minlandi.

Tashqi inflyasiya shoklariga qaramay, O'zbekiston inflyasiyani boshqariladigan chegaralarda ushlab turishga muvaffaq bo'ldi. 2024 yilda uning darajasi 9,8 foizni tashkil etdi, bu Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasi (16,7 foiz) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan past va bir qator rivojlanayotgan iqtisodiyotlar darajasiga to'g'ri keladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi katta rol o'ynadi. Amaldagi korxonalar soni 268 mingtadan 485 mingga ko'paydi, bu esa biznesni tartibga solish, ruxsat berish tartib-taomillarini raqamlashtirish va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarni aks ettiradi.

Ishbilarmonlik faolligi ortishi natijasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2,8 baravarga – 14 mlrd dollardan 39 mlrd dollargacha oshdi. Investitsiyalar tarkibida infratuzilma, energetika, ishlab chiqarish va logistika sohasidagi loyihalar salmoqli ulushga ega bo'lib, bu uzoq muddatli o'sish uchun zamin yaratadi.

Norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurash ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Raqamli kassa apparatlari, elektron hisobvaraq-faktura tizimlari va tavakkalchilikka yo'naltirilgan soliq nazoratini joriy etish hisobiga yashirin sektorning YaIMdagi ulushi 45,1 foizdan 34,8 foizga kamaydi. Bu soliq yig'ilishi hajmini oshirdi va adolatli raqobat uchun sharoitlarni yaxshiladi.

Makroiqtisodiy sharh yakunida xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini yanada mustahkamlashga qaratilgan strategik intilishni alohida qayd etish joiz. 2030 yilga mo'ljallangan maqsadli yo'nalishlar doirasida uning YaIMdagi ulushini 85 foiz darajasiga yetkazish ko'zda tutilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat aktivlarini xususiylashtirish, biznes bilan sheriklikni rivojlantirish, bozorlarni liberallashtirish va investitsiya jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, 2017-2024 yillarda O'zbekistonda nafaqat asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning miqdoriy o'sishi, balki kelajakda barqaror va inklyuziv rivojlanish uchun poydevorni shakllantiradigan sifatli tarkibiy o'zgarishlar ham ta'minlandi.

2019-yilda yangi Soliq kodeksi qabul qilinib, qo‘shimcha qiymat solig‘i stavkasi 12 foizga tushirildi. 2028-yil 1-yanvarga qadar QQS hamda foyda solig‘i stavkasi oshirilmasligi belgilab qo‘yildi. Kichik va o‘rta biznesga qo‘shimcha talab va majburiyat yuklaydigan me‘yoriy hujjatlar qabul qilishga ham uch yillik moratoriy e‘lon qilindi. QQS qaytarish muddatini qisqartirish, yagona soliq stavkasi joriy qilinishi tadbirkorlar uchun muhim qadam bo‘ldi.

2017 yildan keyin tadbirkorlik muhiti keskin o‘zgardi. Kichik va o‘rta tadbirkorlar soni besh yilda 2 karra ko‘paygan, ularda 10,5 million odam daromad topib, ro‘zg‘or tebratmoqda.

2025-yilda ham soliq siyosati sohasida qator islohotlar va imtiyozlar joriy qilinyapti. Ushbu o‘zgarishlar aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan. Jumladan, 2025-2028-yillarda kambag‘al oilalar a‘zolarini ishga olgan korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foiz o‘rniga 1 foiz etib belgilandi. 2024-2027-yillarda kasb o‘rganishga jalb qilingan o‘quvchilar uchun ham ijtimoiy va daromad solig‘i 1 foiz etib belgilanadi.

2017-yilda davlat budjeti ilk bor OAVda e‘lon qilindi. Budjet jarayonida jamoatchilik nazorati uchun “Ochiq budjet” portali ishga tushirildi.

Jahon tan olayotgan yangi iqtisodiy voqelikni xalqaro tashkilotlar e‘tirofida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, Jahon banki O‘zbekistondagi bozorga asoslangan, insonni markaziy o‘ringa qo‘ygan iqtisodiy o‘zgarishlar mintaqaviy namuna bo‘lib xizmat qilayotganini alohida qayd etdi.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu natijalar kreativ rivojlanishning oilaviy tadbirkorlikka ta’siri bevosita va ko‘p kanalli ekanini ko‘rsatadi. Kreativ iqtisodiyot elementlari - dizayn, brend yaratish, raqamli savdo, innovatsion xizmatlar va intellektual mehnat - oilaviy tadbirkorlikning qo‘shimcha qiymat yaratish jarayonini kuchaytiradi, bozor segmentatsiyasini kengaytiradi, mahsulotning noyobligini ta’minlaydi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Natijada, kreativ transformatsiya nafaqat daromad ko‘rsatkichlarining o‘shishiga, balki iqtisodiy barqarorlik, bandlik sifati va hududiy iqtisodiy farovonlikning oshishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Howkins, J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. Penguin Press, London, 2013.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856-son Qarori.
3. <https://review.uz/uz/post/infografika-makroekonomicheskie-pokazateli-uzbekistana-za-2017-2024-gg>
4. <https://parliament.gov.uz/articles/2207>